

INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH MANBALARI VA USULLARI.

*Andijon Qishloq Xo'jaligi va Agrotexnologiyalar instituti
Buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
To'xtasinov O'tkirbek O'lmasbek o'g'li*

Annotatsiya. Ushbu maqolada investitsiyalarni moliyalashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, ulardan foydalanish manbalari, bir muddat ichida investitsiyalarning o'sish kamayish oraliqlarining jadvallarda aks ettirilishi va investitsiyalarning foydali tomonlari haqida so'z olib boriladi.

Kalit so'zlar. Moliyalashtirish, investitsiya faoliyati, moliyalashtirish manbalari, moliyalashtirish tasnifi, moliyalashtirish tamoyillari.

Moliyalashtirish deganda korxonalar va tashkilotlarni, turli iqtisodiy dasturlarni va iqtisodiy faoliyat turlarini, qurilayotgan obyektlar va qurilishlarni zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlash tushuniladi. Mamlakatimizda investitsiya faoliyatini amalga oshirishdagi eng asosiy masala – ularni moliyaviy resurslar bilan taminlash, ya'ni moliyalashtirish masalasidir.

Investitsiya faoliyatini moliyalash

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish deganda, investitsiya loyihasini ishlab chiqish, uni amaliyotga maqsadli tadbiq etish, ya'ni loyihani amalga oshirish va ekspluatatsiya qilish, shuningdek, monitoringini olib borish xarajatlarini qoplash uchun optimal investitsiya resurslarini shakllantirish va ularning hisob-kitobini chiqarish xisoblanadi. Bu jarayonlarda, albatta, moliyaviy resurslarni taqdim va qoidalar asosida amalga oshiradi. Shundan kelib chiqib, moliyalashtirish mexanizimiga moliyalashtirish munosabatlari, moliyalashtirish muassasalarining va moliyalashtirish tizimining yig'indisi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Bu yerda asosiy obyektiv qism-moliyalashtirish munosabatlari bazis (asos) sifatida qatnashadi.

Moliyalashtirish muassasalari barcha pul va kredit oqimlarini boshqarish turadi.

Moliyalashtirish tizimi moliyalashtirish tomonidan amaliyotga pul va kredit aloqalarini boshqarish maqsadida ishlab chiqiladi. Moliyalashtirish maqsadlari: asosiy kapitalni yangilash, aylanma mablag`larni tashkil qilish, mehnat faoliyatini rag`batlantirish va mehnat daromadining doimiy manbani yuzaga keltirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, dehqon va fermer xo`jaliklarni rivojlantirish va kengaytirish, shu jumladan, qishloq xo`jaligi texnikasini sotib olish, fermerlik inshootlarni qurish, chorvachilik, parrandachilikni rivojlantirish; bevosita ishlab chiqarish sohasi, ya`ni mahsulotlar ishlab chiqarish, homashyo va materiallarni tubdan qayta ishlash, hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilik mehnatini tashkil etish, binokorlik materiallari ishlab chiqarish va qurish; aholiga tibbiy xizmat ko`rsatish va maishiy xizmat ko`rsatishni tashkil etish, turizm sohasini rivojlantirish va boshqalar. Moliyalashtirish tamoyillari va o`ziga xos xususiyatlari xamda shartlari: muddatlilik, kredit olish uchun kredit byurtmasi; pul oqimi tahlili majburiy tarzda ko`rsatilgan biznes-reja; kreditning qaytarilish ta`minoti va qonunchilikka oid boshqa hujjatlar.

Investisiya faoliyati moliyalashtirish manbalari va ularning tasnifi

Real investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari quyidagi shakllarga bo`linadi:

1. Investorning o`z moliyaviy resurslari;
2. Investorning qarzga olgan mablag`lari
3. Investorning jalb qilgan moliyaviy resurslari;
4. Davlat byujeti mablag`lari, (shu jumladan, mahalliy byudjet mablag`lari);
5. Chet el investitsiyalari va kreditlari;
6. Noan`anaviy moliyalashtirish. (sindikatlilik kreditlash, venchurli moliyalashtirish va boshqalar).

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o`zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi (chet el investitsiyalari va kreditlari)

| Hududlar,yillar | 2000 | 2005 | 2010 | 2015 | 2020 | 2022 | 2023 |
|---------------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| O'zbekiston Respublikasi | 23,2 | 21,7 | 26,4 | 18,5 | 42,7 | 42,3 | 42,8 |

| | | | | | | | |
|-------------------------------|------|------|------|------|------|------|------|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 6,6 | 23,4 | 12,6 | 48,2 | 38,9 | 37,4 | 38,7 |
| Andijon | 4,5 | 19,6 | 8,2 | 4,4 | 36,3 | 45,6 | 48,4 |
| Buxoro | 10,5 | 10,8 | 63,2 | 35,9 | 48,2 | 58,5 | 58,4 |
| Jizzax | 28,9 | 6,2 | 7,6 | 2,9 | 61,9 | 44,5 | 47,3 |
| Qashqadaryo | 31,3 | 11,8 | 26,5 | 17,6 | 69,3 | 53,6 | 47,0 |
| Navoiy | 20,3 | 23,5 | 25,2 | 3,0 | 67,8 | 61,3 | 54,4 |
| Namangan | 2,3 | 12,3 | 4,7 | 21,9 | 37,2 | 29,8 | 34,7 |
| Samarqand | 13,3 | 17,7 | 3,2 | 4,0 | 27,0 | 34,9 | 52,7 |
| Surxondaryo | 4,9 | 6,3 | 5,2 | 10,4 | 60,1 | 45,2 | 42,3 |
| Sirdaryo | 21,7 | 17,6 | 9,6 | 10,8 | 48,7 | 59,8 | 79,1 |
| Toshkent | 31,1 | 16,6 | 16,4 | 15,3 | 26,7 | 34,3 | 32,4 |
| Farg'ona | 27,3 | 10,1 | 12,3 | 7,6 | 41,3 | 39,1 | 44,8 |
| Xorazm | 9,5 | 15,1 | 9,8 | 2,7 | 32,0 | 33,5 | 32,3 |
| Toshkent sh. | 34,2 | 42,3 | 39,5 | 13,0 | 29,9 | 37,3 | 30,0 |

Ushbu jadvalda 2000-yildan har besh yil bo'yicha 2023-yilgacha bo'lgan oraliqda moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibining o'sish surati aks ettirilgan.

Investitsiya faoliyatining mohiyati, ahamiyati va uning yo'nalishlar

Samara yoki daromad keltiradigan mulkiy va intellektual boyliklar, ya'ni investitsiyalar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin.

- 1) pul mablag'lari, banklardagi maqsadli jamg'armalar, aksiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar;
- 2) harakatdagi va harakatda bo'lmagan mulklar (binolar, inshootlar, asbob- uskunalar, hamda boshqa moddiy boyliklar);
- 3) mualliflik huquqi, nou-xaulardan tashkil topgan mulkdorlik huquqlari va boshqa intellektual boyliklar;
- 4) yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari hamda mulkchilik huquqlari;

5) boshqa boyliklar.

Investitsiyalarning qayd etilgan turlari va shakllari asosida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa davlat tomonidan ta'qiqlanmagan faoliyatlarni barcha investorlar tomonidan amaliy ravishda yo'lga qo'yish, mablag'lar sarflash va ularni amaliyotga tadbiiq etish chora tadbirlarining yig'indisi investitsiya faoliyatini anglatadi.

Bozor iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini fuqarolar, huquqiy shaxslar (korxonalar, firmalar, aksioner jamiyatlari va boshqa tipdagi mulk egalari) va davlat yuritadi.

Investitsiya faoliyatini yo'lga qo'yishda har bir mulk egasi, birinchi navbatda o'z manfaatini ko'zlab yagona maqsadga, ya'ni foyda olish va samaraga erishishni rejalashtiradi. Investitsiya faoliyatini tashkil etishda har bir mulk egasi ishbilarmonlikni, tadbirkorlik mohiyatini chuqur anglagan holda ish yuritishi lozim. Investitsiya mohiyatini chuqur faoliyati bilan shug'ullanuvchi mulk egasi tez o'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti va uning ko'pqirrali munosabatlarini har tomonlama anglay bilishi lozim. Investitsiya faoliyatini yuritishda iqtisodiy axborotga tayangan soha bir butun iqtisodiyot va mamlakat miqyosida marketing bilimlariga ega bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Chunki, barqarorlashmagan iqtisodiyotda investor pul muomalasi, moliya kredit va banklar, soliq siyosati mohiyatini chuqur bilmay turib, investitsiya faoliyatini tashkil etish tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lib, qisqa davr ichidagi inqirozga uchrashi mumkin. Bozor munosabatlari rivojlangan yetuk jamiyatda investitsiya faoliyati quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- fuqarolar, davlatga qarashli bo'lmagan korxonalar, xo'jalik assotsiatsiyalari, jamoa va o'rtoqlik xo'jaliklari hamda jamoa mulkchiligi asosida tashkil etilgan tashkilotlar, nodavlat korxonalar va muassasalari tomonidan;
- davlatni ma'muriy va boshqaruv bo'linmalari, tashkilotlari hamda davlat korxonalar va muassasalari tomonidan;
- chet el fuqarolari, xususiy firmalar, assotsiatsiyalar, kompaniyalar va huquqiy shaxslari hamda boshqa xorijiy davlatlar va halqaro moliya - kredit muassasalari tomonidan;
- qo'shma korxonalar ko'rinishida mahalliy va chet el fuqarolari, huquqiy shaxslar va davlatlar bilan hamkorlikda.

Mulkchilikni turli shakllarini rivojlanishi, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni yo'lga qo'yilishi, Jahon iqtisodiy aloqalarini taraqqiy etishi, qo'shma korxonalarni iqtisodiyotni barqarorlashtirishdagi ro'lining ortishi investitsiya faoliyatini to'la tashkil etish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni yaratadi.

Mulkchilikning turli shakllarini vujudga kelishi, o'z navbatida tadbirkorlikning rivojlanishi, chet el kapitalining kirib kelishi investitsiya faoliyatini tashkil etish yo'nalishlarini ham aniqlab beradi.

Xulosa qilib aytganimizda, investitsiyalarning faoliyatini moliyalashtirish bozor sharoitida investitsiya faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish Jismoniy, huquqiy shaxslarni va davlatni, foyda olish maqsadida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa faoliyatlarini qaytadan tiklashga qaratilgan. Bu boradagi asosiy maqsad investitsiya faoliyatini tashkil etib iqtisodiyotni inqirozdan olib chiqish, uni barqarorlashtirish, dunyo bozoriga kirib borish, jahon xo'jalik aloqalarini mustahkamlash va aholi turmush darajasini yaxshilashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Arxiv.uz <https://arxiv.uz> sayti
2. Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi darslik kitobi
3. Yandex <https://yandex.ru/> sayti
4. Google web. www.google.com sayti
5. Yandex articles.opexflow.com sayti
6. Google web. <https://review.uz> sayti